

KRISHAN CHANDAR ASARLARINING O‘ZBEKCHA TARJIMALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7394911>

Nazrullayeva Gulnoza Karimbek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrası tayanch doktoranti
Toshkent, O‘zbekiston
e-mail: nazrullayevag@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hozirgi kunga qadar tarjimashunoslikda maxsus o‘rganilmagan mavzu – zamonaviy hind adabiyotining yorqin namoyandasi Krishan Chandar asarlarining o‘zbekcha tarjimalari tahlilga tortiladi. Unda ilk bor Krishan Chandar hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan ijodkorlar A.Ibrohimov va A.Fayzullayevlarning tarjimonlik mahoratlariga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘z va iboralar. *Krishan Chandar, badiiy tarjima, personaj nutqi, bolalar nutqi.*

ANNOTATION

This article analyzes the Uzbek translations of the works of Krishan Chandar, a bright representative of modern Indian literature, which has not been specially studied in translation studies. It will focus on the translation skills of A. Ibrohimov and A. Fayzullayev, who translated Krishan Chandar's stories into Uzbek for the first time.

Keywords and phrases. *Krishan Chandar, fiction translation, character speech, children's speech.*

Hind adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Krishan Chandar hind adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Adibning “Tilimi xayol” (1937), “Biz vahshiyimiz” (1949) hikoyalar to‘plami, “Mag‘lubiyat” (1958), “Bo‘ron kurtaklari” (1954), “Kumush yara” (1964) romanlari, “Ko‘cha ortga qaytadi” (1961), “Ikkinchi qor yog‘ishdan avval” (1967) qissalari, Loy o‘yinchoqlar” (1956), “Xotiramdagi chinorlar” (1968), “Eshakning sarguzashtlari” (1958 – 65), “Dadar ko‘prigidagi bolalar” (1958), “Qog‘oz qayiq” (1966) qissalari bizga yaxshi ma‘lum.

Krishan Chandar hozirgi zamon talabiga javob beradigan yozuvchilardan edi. Uning romanlarini va hikoyalarini nafaqat o‘z ona yurtida, balki o‘zga yurtlarda ham mutola qilishadi. Uning romanlari ko‘plab dunyo tillariga tarjima qilingan. Xususan ingliz, fransuz, nemis, golland, norveg, rumin kabi bir necha evropa tillariga, arab, fors, senegal, xitoy, koreys, yapon kabi sharq tillariga, va albatta o‘zbek tiliga ham o‘girilib nashr etilgan. Krishan Chandar ijodiga bag‘ishlab bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Krishan Chandar 20 dan ortiq roman, 30ga yaqin hikoya, dramalar, tanqidiy maqolalar va ocherklar muallifidir. Ular taxminan 80 ga yaqin. Yozuvchining kinofilm senariylari va hajviy romanlari mashhurdir¹. 1932-yil uning “Sadxu” hikoyasi urdu tilida chop etilgan.

Krishan Chandar ijodi odatda hayotdan olingan voqealardan tashkil topgan. Uning roman, hikoyalarida nochorlikda yashovchi odamlar hayoti, mehribon va g‘ururli insonlar taqdiri, yaxshi insonlarni xor qilmaslik to‘g‘risida so‘z borgan.

Krishan Chandar hikoyalarining ilk tarjimalari: 1955-yilda “Seni kutaman”² (“Жду тебя”³ मैं इंतज़ार करूंगा⁴) nomli hikoyasi rus tilidan Mahmud Yahyoyev tomonidan o‘zbekchaga tarjima qilingan. 1957-yil “Shamollar onasi” (“Мать ветров”⁵ तुफ़ान की कलीआँ⁶) hikoyasi rus tarjimoni V.Bikova tomonidan tarjima qilingan. 1958-yilda ushbu hikoyani rus tilidan Qodir Mirmuhamedov o‘zbek tiliga tarjima qilgan⁷. “Yozuvchining ilk ijodiga mansub lirik hikoyasi “Angi” romantik bo‘yoqdorlikka ega. “Angi” hikoyasi yozuvchining bolaligi o‘tgan Kashmir bilan bog‘liqdir. 1972-yilda “Angi” hikoyasi urdu tilidan rus tarjimashunoslari I.Rabinov va I.Kudryavsev tomonidan rus tiliga tarjima qilingan”⁸. 1979 – yil “Bir eshakning sarguzashti” (“Похождения Осла”⁹ एक गधे की आत्मकथा¹⁰) hikoyasi Mustafon Horun

¹ Сухочев А. Мастера современной прозы Кришан Чандар. – М.: Прогресс, 1972. – С. 6.

² Кришан Ч. Сени кутаман. Ҳикоя (рус тилидан Маҳмуд Яҳёев таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1955. - № 3.

³ <https://m.livelib.ru/book/10004544>

⁴ <https://hi.m.wikipedia.org/wiki/विकिपीडिया> में खोजें

⁵ <https://m.livelib.ru/book/10004544>

⁶ <https://hi.m.wikipedia.org/wiki/विकिपीडिया> में खोजें

⁷ Кришан Ч. Шамоллар онаси. Ҳикоя (рус тилидан Қодир Мирмуҳаммедов таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1958. № 9.

⁸ Сухочев А. Мастера современной прозы Кришан Чандар. – М.: Прогресс, 1972.

⁹ <https://m.livelib.ru/book/10004544>

¹⁰ <https://hi.m.wikipedia.org/wiki/विकिपीडिया> में खोजें

tomonidan Bengal tiliga tarjima qilingan. 1983-yil Amir Fayzullayev “Ezgulik xapdorisi” hikoyani o‘zbek tiliga tarjima qilgan¹¹.

1972-yil Moskvada Krishan Chandar qissalari va hikoyalari “Zamonaviy nasr ustalari. Hindiston”. (Мастера Современной прозы. Индия¹²) kitobi chop etilgan. Mazkur kitobda Krishan Chandarning eng mashhur 2 ta qissasi va 23 ta hikoyasi jam bo‘lgan. Kitobni tuzuvchi va tarjimoni A.Suxochev. Ushbu kitobdagi barcha qissa va hikoyalar urdu tilidan tarjima qilingan. “Kitobda yozuvchining eng mashhur qissalaridan “Yer qachon paydo bo‘lgan” (“Когда пробудились поля”, “जब खेत जागे” 1951) va “Xotiramdagi chinorlar”¹³ (“Чинары моих воспоминаний”, “मेरी यादों के चिनार” 1968) qissalari joy olgan”¹⁴. Kitobda 23 ta hikoyalarning rus tiliga qilingan tarjimalari mavjud.

Odatda Krishan Chandar hikoyalari Hindistondagi hayot qiyinchiliklari gavdalanar edi. Garchi u boshqa mavzularda ham ijod qilgan bo‘lsada. Hindistonda Krishan Chandarning kitoblari mahalliy 16 tilda bosib chiqarilgan. Hamda ko‘plab asarlari chet tillariga tarjima qilingan. Xususan ingliz va rus tillariga. Uning eng mashhur romanlaridan biri “Eshakning sarguzashti” (“Похождения Осла”¹⁵ एक गधे की आत्मकथा¹⁶), “Singan daraxt” (“Перевернутое дерево”¹⁷ उल्टा दाराखत¹⁸) falsafiy ertaglaridir. -2008-2007yillarda mashhur kitoblaridan biri “Qalb ovozi” (“Голос сердца”¹⁹ चांदी का घाव दिल²⁰) R.Qayumova tomonidan urdu tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

“Krishan Chandarning ilk hikoyalari “Botkin kasalligi” (“Желтуха”) hamda, Laxor jurnallarida chop etilgan “Adabi dunyosi” (Адаби дунья) va “Xumoyun” (Хумаюн) asarlari kitobxonlar etiborini tezda o‘ziga chorladi. Krishan Chandarning dastlabki hikoyalar to‘plami “Tilimsi xayol”(1937) (Талисман мысли) nomli ilk hikoyalar to‘plami unga shuhrat olib keldi”²¹.

¹¹Кришан Ч. Эзгулик хапдориси. Хикоя (хиндий тилидан Амир Файзуллаев таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1958. – № 9.

¹² Сухочев А. Мастера современной прозы Кришан Чандар. – М.: Прогресс, 1972.

¹³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2003. - № 5. - Б. 100.

¹⁴ Сухочев А. Мастера современной прозы Кришан Чандар. – М.: Прогресс, 1972.

¹⁵ То же произведение. – С. 11.

¹⁶ [https://hi.m.wikipedia.org/wiki/ विकिपीडिया](https://hi.m.wikipedia.org/wiki/विकिपीडिया) में खोजें

¹⁷ old.rsl.ru/table.jsp

¹⁸ [https://hi.m.wikipedia.org/wiki/ विकिपीडिया](https://hi.m.wikipedia.org/wiki/विकिपीडिया) में खोजें

¹⁹ <https://m.livelib.ru/book/10004544>

²⁰ [https://hi.m.wikipedia.org/wiki/ विकिपीडिया](https://hi.m.wikipedia.org/wiki/विकिपीडिया) में खोजें

²¹ Сухочев А. Мастера современной прозы Кришан Чандар. – М.: Прогресс, 1972.

Krishan Chandarning “Dadar ko‘prigidagi bolalar”²² (“Дети с Дадарского моста”²³ ”दादर पुल के बच्चे”²⁴) qissasi 1999-yil hindiy tilidan Ansoriddin Ibrohimov tarjima qilgan. Yozuvchining “Bir qizga ming oshiq”²⁵ (“Одна девушка и тысяча влюбленных”²⁶ एक लड़की हज़ार दीवाने²⁷) romani 2011-yil tarjimon Amir Fayzullayev hindiy tilidan tarjima qilgan.

Krishan Chandar shunchalar ijodga sho‘ng‘iganidan o‘zining salomatligiga beparvo bo‘lgan. Uning san‘atga bo‘lgan muhabbati juda kuchli edi. U 1977-yilning 8-martida Bombay shahrida yurak xuruji tufayli vafot etgan. Yozuvchiga bag‘ishlab Punch shahrining markaziga haykal qo‘yishgan.

Krishan Chandarning ko‘pgina tarjima hikoyalari o‘zbek kitobxonlariga ma‘lumdir. Adibning A.Ibrohimov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Dadar ko‘prigidagi bolalar” (दादर पुल के बच्चे) qissasi 1999 yilda tarjima qilingan va “Bir qizga ming oshiq” (एक लड़की हज़ार दीवाने) romani A.Fayzullayev tomonidan 2011 yilda o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda Sharq tillaridan, xususan, hindiy tilidan badiiy asarlarni tarjima qilishda katta ishlar qilindi. Hind adabiyotining mashhur vakillaridan biri Krishan Chandarning qalamiga mansub “Dadar ko‘prigidagi bolalar” asari 1999-yil hindiy tilidan o‘zbek tiliga Ansoriddin Ibrohimov tarjima qilgan, hamda, “Bir qizga ming oshiq” asari 2011-yil Amir Fayzullayev hindiy tilidan o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Tarjimonlar Krishan Chandarning ushbu qissalarini kitobxonga manzur qilish maqsadida o‘z ona tilining imkoniyatlaridan unumli foydalangan.

Krishan Chandarning “Dadar ko‘prigidagi bolalar” asari tarjimasida bolalar nutqi bolalarcha mohirona berilgan. Asarni tahlil qilish jarayonida bolalar nutqining rivojlanishida nafaqat til qonunlari, balki og‘zaki nutqqa xos xususiyatlar, tafakkurning rivojlanish qonuniyatlari, atrof-muhit bilan tanishish jarayonida hosil qilingan tasavvurlar ham o‘z aksini topishi mumkin.

Bolalar nutqining rivojlanishida nafaqat til qonunlari, balki og‘zaki nutqqa xos xususiyatlar, tafakkurning rivojlanish qonuniyatlari, atrof-muhit bilan tanishish jarayonida hosil qilingan tasavvurlar ham o‘z aksini topadi. Shu jihatdan

²² Кришан Ч. Дадар кўпригидаги болалар. Қисса (ҳиндий тилидан Ансориддин Иброхимов таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1999. - № 2.

²³ Сухочев А. Мастера современной прозы Кришан Чандар. – М.: Прогресс, 1972. – Б. 11.

²⁴ कृष्ण चन्द्रा दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013।

²⁵ Кришан Ч. Бир қизга минг ошиқ. Роман (ҳиндий тилидан Амир Файзуллаев таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 2011. - № 4.

²⁶ <https://m.livelib.ru/book/10004544>

²⁷ कृष्ण चन्द्रा दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013।

psixolingvistika mustaqil fan sifatida shakllanganidan so‘ng bu yo‘nalishga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bordi.

चार कदम और आगे जाकर हमें एक और लड़का मिला जो लकड़ी के एक छोटे-से तख्ते पर फाउण्टेन पेन रखे, उन्हें बेच रहा था और आवाजें लगा रहा था, 'असली शेफर का पेन केवल चार आने में।

Sal nari yurib, yana bir bolaga duch keldik. U kichikroq bir faner taxtaga qator qilib avtoruchkalarni terib olganda, “Kep qoling asl yoqut avtoruchkaga! Kep qoling, atigi to‘rt anna!” deb ovozing boricha qichqirayapti.

Ushbu gapning tarjimasi o‘zbek kitobxoniga chunarli qilib tarjima qilingan. Chunki tarjimon asliyatdagi “Asl avtoruchka faqat to‘rt annaga” personaj nutqini “Kep qoling asl yoqut avtoruchkaga! Kep qoling, atigi to‘rt anna!” deb mohirona o‘zbek tiliga o‘girgan. O‘zbek xalqiga tegishli “Kep qoling” bozorda ishlatiladigan gapni joyiga qo‘yib ishlata olgan.

'जाओ, जाओ।' उस लड़के ने हमें अपने निकट आते हुए देखकर कहा, 'कहीं कोई दूसरी जगह देखो, मेरी ग्राहकी खराब न करो ।'

- Qani, jo‘nab qol-chi, bu erdan! – uning yoniga o‘tirmoqchi bo‘lganimizni ko‘rib do‘q qildi bola. – Borlaring, boshqa yoqqa borlaring, savdoning beliga tepasanlar!

Bu o‘rinda tarjimon gaplarni tarjima qilayotganda iboralarni qo‘llagan. Misol uchun, 'कहीं कोई दूसरी जगह देखो, मेरी ग्राहकी खराब न करो।' jumlaning tarjimon “Borlaring, boshqa yoqqa borlaring, savdoning beliga tepasanlar!” deb o‘zbek tiliga o‘giradi. Asliyatdagi “मेरी ग्राहकी खराब न करो” gapni quyidagi ibora bilan beradi “Savdoning beliga tepasanlar”. Mutarjim ushbu gapni to‘g‘ri tarjima qilgan deyish mumkin.

कम्पाउण्ड के बाहर मोमबत्तियां बेचने वाला एक छोटा-सा लड़का हमारे पीछे-पीछे हो लिया।

'पूअर आरफन....यतीम हूं....पूअर, पूअर आरफन....तीन आने में दो कैण्डिल बेचता हूं....और मोम की बत्तियां तीन आने में ले जाओ....क्राइस्ट तुम्हारा भला करे, तीन आने ही दो....पूअर आरफन....मदर-फादर डेड....तीन आने ही दो '

Bizga o‘sha erdan sham sotib o‘tirgan kichkinagina bir bolakay ilashdi. U inglizcha va hindiychani aralash-quralash qilib, buzib-yorib labi-labiga tegmay bidirlardi:

- Ota-onam yo‘q...yetimman, ikkitasi uch annadan sham sotaman...Sizlar ham shamdan ola ketinglar...Xudo xayringizni bersin, uch annagina berib, shamdan ola ketinglar...Bir bechora etim bolaman...Ota-onam o‘lib ketgan...Uch annani ayamanglar

Tarjimon “U inglizcha va hindiychani aralash-quralash qilib, buzib-yorib labi-labiga tegmay bidirlardi:” gaplarini o‘zidan qo‘shadi. Kichkina bolakay qanday gapirayotganini tarjimon kitobxonlarga aniq tushintirib ko‘rsatib beradi. Asliytdagi “क्राइस्ट तुम्हारा भला करे” gapini tarjimon “Xudo xayringizni bersin” deya o‘zbek tiliga o‘giran. Bizningcha tarjimon bola qaysi dinga tegishliligini ochib bera olmagan. Gapning mohiyati bekilib qolgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mutarjim bolaning xristian diniga mansubligini e‘tiborga olishi kerak edi. “Xudo o‘zi madadkor bo‘lsin” deya berishi mumkin edi. Mutarjim bolakayning nutqini asliyatdan ham marobiga etkazib tarjima qilgan desak bo‘ladi. Chunki tarjimada bolakayning nolalari chiroyli tasvirlangan. Ammo asliyatda unday emas.

Bir tildan biror bir asarni tarjima qilish salkam yangi asar yaratishga teng. Chunki ikkala mehnat ham ijod bilan jambarchas bog‘liq. Krishan Chandarning “Dadar ko‘prigidagi bolalar” hikoyasi tarjimasida mutarjim erishgan yutuqlarni sanash qiyin. Shu bilan bir qatorda, tarjima jarayonida yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklarga nisbatan ham obyektiv munosabat bildirish lozim. Ana shu nuqtai nazarlardan kelib chiqib bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarimizni davom ettirish kerak bo‘ladi.

REFERENCES

1. Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. – М., 1972.
2. Кришан Ч. Сени кутаман. Ҳикоя (рус тилидан Махмуд Яхёев таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1955.
3. Кришан Ч. Шамоллар онаси. Ҳикоя (рус тилидан Қодир Мирмуҳаммедов таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1958.
4. Кришан Ч. Эзгулик хапдориси. Ҳикоя (хиндий тилидан Амир Файзуллаев таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1958.
5. Кришан Ч. Бир қизга минг ошиқ. Роман (хиндий тилидан Амир Файзуллаев таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 2011. - № 4.

6. Кришан Ч. Дадар кўпригидаги болалар. Қисса (хиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1999. - № 2.
7. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005.
8. Сухочев А. Мастера современной прозы Кришан Чандар. – М.: Прогресс, 1972.
9. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1996.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2003. - № 5.
11. Ходжайева Н. Hindiycha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-hindiycha iboralar lug‘ati. Т.: ToshDSHI, 2015.
12. Х.Х.Ҳамидов. Турк фразеологияси масалалари./ Монография. – Т.: “BAYOZ”, 2019.
13. कृश्न चन्दर। दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013।